

Qurilish ishlari

RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi – **246,1** mlrd. so'm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi **-4,1 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar -**75,7 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi-**20,2 foiz**


Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatda 246,1 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,8 foizni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 2,8 foiz punktga o'sgan.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 10,1 mlrd.so'mni yoki 112,4 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,4 foiz punktga o'sgan.


2018 yil yanvar-may oylari

Ko'pgina shahar va tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Shirin shaxrida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 0,9 mlrd.so'mni, o'sish sur'ati 41,4 foizni, mos ravishda, Oq oltin tumanida – 0,7 mlrd.so'm yoki 83,2 foizni, Mirzaobod tumanida – 1,0 mlrd.so'm yoki 89,1 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari (mlrd.so'm)




**Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati
2018 yil yanvar-may uchun**



**2018 yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari
quyidagicha ifodalanadi:**

	<i>Jami</i>	
	<i>mtrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Viloyat bo'yicha	246,1	102,8
Guliston sh	113,0	119,1
Shirin sh	11,4	95,9
Yangier sh	20,1	96,3
Boyovut	16,6	99,0
Guliston	10,2	98,2
Mirzaobod	15,8	93,5
Oqoltin	6,5	106,0
Sardoba	8,7	136,7
Sayxunobod	13,4	104,7
Sirdaryo	18,0	88,1
Xovos	12,4	56,9

**2018 yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlari
umumiy hajmida hududlarning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)**





Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining 45,9 % tashkil etdi, Yangier shaxrida bajarilgan qurilish ishlari 8,3 % ni, Sirdaryo tumanida 7,3 % ni, va Boyovut tumanida 6,7 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Sardoba tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,5 % ni va Oq oltin tumanida 2,6 % ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakllari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 224,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 91,4 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 foiz punktiga o'sdi.



Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

G.Muxraximova
(0371) 230-86-27